

1-laboratoriya mashg'uloti

Mavzu: Ornitologiyaning predmeti va vazifalari– Qushlarni o'rganish tarixi, mashhur ornitologlar, fanning ahamiyati.

Darsning maqsadi: Talabalarga ornitologiya fanining mohiyati, predmeti, vazifalari, rivojlanish tarixi, mashhur ornitologlar faoliyati va fanning amaliy ahamiyati haqida tushuncha berish.

Kerakli jihozlar: Qushlarning sxematik va anatomik plakatlari, qush skeleti va suyak modellari, preparatlar (pat, tumshuq, qanot, oyoq namunalari), mikroskop, tabiatdan to'plangan namunalari (pat, tuxum qobig'i, uyalar), lupa

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Talaba ornitologiya fanining mazmuni va ahamiyatini tushuntira oladi.
2. Qushlarni o'rganish tarixini va mashhur ornitologlarning hissasini biladi.
3. Qushlarning tuzilishi, yashash muhiti va ekologik ahamiyatini tahlil qiladi.
4. Ornitologik kuzatishlarni olib borish va natijalarni yozma ravishda ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi.
5. Qushlarni muhofaza qilish zaruriyatini anglab, ekologik madaniyatni rivojlantiradi.

Nazariy tushuncha: Ornitologiyaning predmeti va vazifalari – umumiy ma'lumot
Ornitologiya — bu biologiya fanining bir tarmog'i bo'lib, qushlarni o'rganish bilan shug'ullanadi (1-rasm). U qushlarning tuzilishi, hayot faoliyati, yashash muhiti, ko'payishi, tarqalishi va tabiatdagi o'rnini tadqiq etadi.

Fanning predmeti – qushlarning morfologiyasi (tashqi tuzilishi), anatomiyasi (ichki tuzilishi), fiziologiyasi, ekologiyasi, evolyutsiyasi va sistematikasini o'rganishdir.

Vazifalari:

Qush turlarini aniqlash va tasniflash;

Ularning yashash joylarini va ekologik ahamiyatini o'rganish;

Qushlarning migratsiya yo'nalishlarini kuzatish;


Qushlarni tabiatda asrash va muhofaza qilish;

Qushlardan inson faoliyatida (qishloq xo‘jaligi, tibbiyot, biologiya) foydalanish.



1-rasm. Ornitologiya fanining o‘rganish obyekti

Qushlarni o‘rganish tarixi qadimiy davrlardan boshlangan. Dastlabki kuzatuvlar qadimgi Misr, Yunoniston va Xitoyda amalga oshirilgan. Mashhur ornitologlar: K. Linney – qushlarni tizimli ravishda tasniflagan. Ch. Darvin – Galapagos orollaridagi qushlar misolida evolyutsiya nazariyasini ishlab chiqqan. A.E. Brem – “Hayvonlar hayoti” asarida qushlar haqida keng ma’lumot bergan. Ornitologiya fanining ahamiyati: Qushlar tabiiy muvozanatni saqlashda, hasharotlarni yo‘qotishda, urug‘larni tarqatishda va inson uchun estetik hamda ilmiy qimmatga ega. Shu bois ornitologiya ekologiya, biologiya va tabiatni muhofaza qilish fanlari uchun juda muhim soha hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Ornitologiya fani rivojiga hissa qo‘shgan olimlar

Laboratoriya mashg‘ulotini o‘tkazish tartibi:

1. Qushlarni kuzatish: turli turlarining tashqi tuzilishi va yashash muhiti bilan moslashuvini aniqlash.
2. Tabiiy yoki rasmlar orqali tahlil: oziqlanish, uchish va harakat xususiyatlarini kuzatish.
3. Pat va tuzilishini o‘rganish: mikroskop yoki lupa yordamida patning tuzilishi va funksiyalarini tahlil qilish.
4. Ma’lumotlarni qayd etish: kuzatuv natijalarini jadval yoki qisqa yozma shaklda rasmiylashtirish.

5. Xulosa chiqarish: qushlarning tuzilishi va yashash muhiti o'rtasidagi bog'liqlik hamda ornitologiya fanining ahamiyatini umumlashtirish.